

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR ONGIDA  
MA'NAVIYATNING O'RNI.

*ADCHTI*

*Abdurashidova Rayyona*

*Ilmiy maslahatchi: Xomidova Maloxat*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar ongida ma'naviyat o'rni, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ma'naviy immunitetning ahamiyati, oila va ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani kuchaytirish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy jamiyat, axborot makoni, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviy immunitet, ta'lim tizimi, oila tarbiyasi.

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida yoshlar ongiga turli xil fikrlar, g'oyalar va yangiliklar tezlik bilan kirib bormoqda. Bunday vaqtda avvalo yoshlar bilan ko'proq shug'ullanish, ularga bizning ma'naviyatimizni, qadriyatlarimizni hamda vatanparvarlik va insonparvarlik kabi muhim fazilatlarimizni o'rgatish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: ma'naviyat o'zi nima? U nima uchun bizning hayotimizdagi eng muhim narsalardan biri hisoblanadi?

Ma'naviyat – bu insonning ichki dunyosi, kechinmalari va axloqiy fazilatlar majmui bo'lib, jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. U yoshlarni rostgo'ylik, halollik, bag'rikenglik, vatanparvarlik kabi ezgu fazilatlar egasi bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi. President Shavkat Mirziyoyev yoshlarga oid “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida ushbu jummalarni keltirib o'tgan: “Yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash – bu bizning eng muhim ustuvor vazifamizdir, chunki ma'naviyati kuchli yoshlar – har qanday yod

g'oyaga qarshi eng katta kuchdir.” Shuningdek, ushbu fazilatga ega bo'lgan insonlar bilan hech qanday axborot xurujlari, yod g'oyalar hamda ma'naviy inqirozlar kabi muammolar yuz bermaydi. U hayotda to'g'ri yo'lni tanlaydi, mustaqil fikr yuritadi va eng asosiysi yurt ravnaqi uchun sitqi dildan xizmat qiladi. Ma'naviy barkamollik - bu nafaqat bilim, balki, to'g'ri yondoshuv, mas'uliyat demakdir.

Bugungi tezkor axborot almashinuvi davrida inson hayoti tubdan o'zgarib bormoqda. Bu ayniqsa, yoshlar ongiga turli g'oyalar, axborotlar va boshqa millat madaniyatlari orqali jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yoshlarning ma'naviyatini mustahkamlash hamda ularni yod g'oyalardan himoya qilish eng muhim omillardan biri sanaladi. UNESCO ning 2022-yilda “Axborot va media strategiyasi” xalqaro metodik qo'llanmasiga ko'ra: raqamli axborot muhitida faol yoshlarning 30 foizi “axborotdan tanqidiy foydalanish” ko'nikmasiga ega emas. Shuning uchun ham O'zbekistonda “Media va axborot savodxonligi” loyihalari yo'lga qo'yilgan.

Bugungi zamonda: internet, ijtimoiy tarmoqlar, reklama va shunga o'xshash yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar juda ko'p. Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lgani kabi ushbu kontentlarning ham ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tarafi shundaki, hozirda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xalqlar bilan muloqot qilib, ularning madaniyatini, yashash tarzini o'rganib o'zining dunyoqarashini kengaytirishmoqda. Shuningdek, onlayn ta'lim tizimi ham yoshlar uchun bir qator qulayliklarni keltirib chiqaradi. Ular internet orqali istalgan vaqtda va istalgan joyda o'zlari uchun kerakli bo'lgan bilimlarga ega bo'lishmoqda. Misol uchun: you tube, telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab mutaxassislar onlayn darslarini ko'rishimiz mumkin. Ammo ushbu kontentlarning salbiy tarafi ham oz emas. Agar yoshlar ma'naviy immunitetga ega bo'lmasalar, turli yod g'oyalar tasarrufiga tushib qolib, o'z tarixi, qadriyati hamda insoniylik fazilatlaridan uzoqlashishi mumkin. Shu tufayli, har bir yosh avlod axborot madaniyatini rivojlantirishi,

har qanday axborotga tanqidiy yondoshib, uni tahlil qilishni o'rganishi zarur. Masalan, 2023-yilda “Cybersecurity Awareness” loyihasi doirasida o'tkazilgan so'rovda yoshlarning 42 foizi internetda noto'g'ri ma'lumotga duch kelganini tan olgan. Bu esa raqamli savodxonlik bilan bir qatorda, ma'naviy savodxonlikni ham rivojlantirish kerakligini ko'rsatadi.

Ma'naviyatni mustahkamlash uchun biz quyidagi islohotlarni amalga oshirishimiz muhim hisoblanadi.

- Oila tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berish. (farzandlar ongiga hallolik, mehnatsevarlik kabi muqaddas fazilatlarni singdirish)
- Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish. (darslarda huquq, tarix, falsafa, adabiyot, madaniyat kabi fanlarning o'rgatish)
- Kitobxonlik madaniyatini oshirish
- Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri, mas'uliyat bilan foydalanishni o'rgatish.

Biz bunday islohotlarni amalga oshira olsak, jamiyatimizni nafaqat ma'naviyatini saqlab qolgan bo'lamiz, balki, yoshlarni zamonga moslashtirib, turli buzg'unchi g'oyalardan himoya qilamiz.

Agar inson ma'naviy tomondan boy bo'lsa, u o'z xalqining qadriyatlarini asrab-avaylaydi, boshqa millat vakillariga ham hurmat bilan qaraydi va jamiyatda ijobiy shaxs sifatida nomoyon bo'lib, boshqalarga o'rnak bo'la oladi. Ma'naviy yetuk bo'lgan yoshlar davlat kelajagini belgilaydilar, negaki, ularda bilim ham mas'uliyatlilik hissi ham yetarli darajada shakllanib bo'lgan bo'ladi. Ma'naviyatli yosh avlod o'zligiga, millatiga, tarixiga hurmat bilan qaraydi, ular bilan faxrlanadi

Hozirgi zamonda eng kuchli qurol – bu bilim, tafakkur va ma'naviyatdir. Shunday ekan, yoshlarimizda ana shu qurolni shakllantirishimiz har birimizning muqaddas vazifamizdir.

Xulosa. Ma'naviyat – insonning ichki hissiyoti, millatning ruhi va jamiyat barqarorligidir. Yoshlar turli xil axborotlarni tez qabul qilib olishlari sababli, ularning ongida milliy qadriyatlar, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish har qachongidan ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent 2021
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch Ma'naviyat 2008
3. IT Park O'zbekiston. Cybersecurity Awareness Report Toshkent 2023
4. UNESCO. Media va ma'lumot savodxonligi.
5. Yoshlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi konsepsiyasi Toshkent 2022